




## XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (dastlabki ma'lumot)


**Doimiy aholi soni.** Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- iyul holatiga 1 936,6 ming kishini tashkil etib, 2022- yil boshidan 12,4 ming kishiga yoki 0,6% ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 640,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1 296,3 ming kishini (66,9 %) tashkil etdi.




**Doimiy aholi sonini hisoblanishi** hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra)






### **Shahar va tumanlar kesimida aholi soni (yanvar-iyun holatiga, ming kishi)**



### **Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022-yil 1- iyul holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)**






## Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni (1- iyul holatiga, ming kishi)


	2021-y.	2022-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1904,4</b>	<b>1936,6</b>	<b>101,7</b>
Urganch sh.	145,5	148,1	101,8
Xiva sh.	94,3	95,8	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	167,6	170,6	101,8
Gurlan	150,3	153,1	101,9
Qo'shko'pir	174,4	176,8	101,4
Urganch	203,1	207,1	102,0
Hazorasp	196,9	199,9	101,5
Tuproqqa'l'a	55,9	57,2	102,3
Xonqa	189,5	192,9	101,8
Xiva	148,0	150,3	101,6
Shovot	172,6	175,2	101,5
Yangiariq	117,8	119,6	101,5
Yangibozor	88,5	90,0	101,7

Viloyat kesimidagi tahlillarga ko'ra, 2022- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholi soni Urganch tumanida qayd etilib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,7 %ni tashkil etgan, keyingi o'rinnlarda Hazorasp tumanida 10,3 %, Xonqa tumanida 10,0 % va Qo'shko'pir tumanida 9,1 %ni tashkil etgan.

### Tug'ilganlar soni ( yanvar- iyun holatiga, ming kishida)




### Tug'ilganlar koeffitsiyenti ( yanvar- iyun holatiga, promille)




*Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'ssa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*



### Tuzilgan nikohlar soni ( yanvar- iyun holatiga, ming kishida)




### Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti ( yanvar- iyun holatiga, promille)




2022- yil yanvar- iyun oylarida **8 074** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti **8,4** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **8,2** promilleni tashkil etgan).



### Nikohdan ajrashganlar soni ( yanvar- iyun holatiga, ming kishida)




### Nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti ( yanvar- iyun holatiga, promille)



2022- yil yanvar- iyun oylarida **1 026** ta nikohdan ajrashganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **0,8** promilleni tashkil etgan).



**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**  
 (2021- yil yanvar- iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



- Qon aylanish tizimi kasallikkleri
- Boshqa kasallikklardan
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasallikklaridan
- Yuqumli va parazitar kasallikklaridan
- O'simtalardan
- Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- Nafas olish a'zolari kasallikklaridan




**Ko'chib kelganlar soni**  
 ( yanvar- iyun holatiga, ming kishida)





### Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti

(yanvar- iyun holatiga, promille)





2022- yil yanvar- iyun oylarida **3 626** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti **3,8** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilga nisbatan **3,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilda **6,8** promilleni tashkil etgan).




### Ko'chib ketganlar soni

(yanvar- iyun holatiga, ming kishida)





## Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti (yanvar- iyun holatiga, promille)



2022- yil yanvar- iyun oylarida **4 275** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilga nisbatan **3,6** promillega kamayganligi kuzatildi (**2021- yilda 8,1 promilleni tashkil etgan**).



## Aholi migratsiyasi

*ming kishi*

	2021- yil yanvar- iyun	2022- yil yanvar- iyun
Ko'chib kelganlar	6,4	3,6
Ko'chib ketganlar	7,6	4,3
Migratsiya saldosi	-1,2	-0,7

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 0,4 ming kishi), Xonqa (minus 0,2 ming kishi), Qo'shko'pir (minus 0,2 ming kishi), Xiva (minus 0,1 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Tuproqqa'l'a tumanida (plus 0,2 ming kishi) va Urganch tumanida (plus 0,2 ming kishi) kuzatildi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi  
tel : (62)2246508